

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-3/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмутовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нағмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.
Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc
Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.
Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Собитов Ўлмасбой Тоғжамедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тоғжибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
Худойбергана Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/4 (112), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 278 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdurakhmanova Z.Yu. The similarities and contrasts between legal words in uzbek and chinese languages	6
Abduvahabova M.A. Ingliz va o‘zbek folklor diskursida genderlikning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	9
Absamatova G.B. Surdo tarjima sinxron tarjimaning noverbal shakli sifatida	13
Aminova N.I. Shukur Xolmirzayevning “Ko‘k dengiz” hikoyasida inson ma‘naviy dunyosi tahlili	16
Ataboyev I. Ta‘na-dashnom nutq strategiyasi muvaffaqiyatining ekstralingvistik shartlari	19
Bakayeva M.K., Astanova H.Z. The artistic modeling of personality in dreiser's works: capturing motives and assessing characters	23
Bazarova X.E. Jamol Kamol she‘riyatida so‘z jilosi	29
Bekova N., Achilova D.F. Abdulqodir Karomatullo ibn Ne‘matullo Sabboq Buxoriy hayoti va adabiy merosi haqida	32
Boymatova D.B. Maqollarda muqobilsiz leksikaning ishlatilishi	35
Erkinov S.E., Saidova M.A. Unlocking global communication: the art and impact of simultaneous translation	37
Fayziyeva A.A., Raximova S.I. Ingliz tiliga xos konseptual metaforalar tahlili	40
Gadoeva M.I., Chullieva M. The old man and the sea, the battle of life for all human kind	42
Gadoeva M.I., Ibragimova M. Linguocultural analysis of imperative mood in uzbek and english	45
Gadoeva M.I., Mirzaeva M.Z. Expressing desire through lexical items in english and uzbek languages	47
Ismailov I.O. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida quyosh timsoli	50
Jo‘rayev Sh.B. Tilshunoslikda o‘zlashmalarning tasniflanishi	52
Karimova Sh. Modernizm yo‘lidagi izlanishlar	55
Khayatova Z.M. Unveiling the language secrets: paraphrasing uzbek texts with software	60
Khodjaeva D.I., Ergasheva M.B. About the branch of onomastics that studies celestial objects	63
Kobilova N.S. Common features of a good language learner	65
Madraximova I.B. Shavkat Rahmon she‘riyatida tun xronotopi	68
Mamarajabova I.F. “Vaqt” konseptini ifodalovchi birliklarning xususiyatlari	71
Maxsudova N.A. Konseptlarning leksikografik tavsifining o‘ziga xos xususiyatlari	73
Mirzaboyeva N.M. Nemis va o‘zbek maqollarida ismlar	78
Muhammadjonova G., Farhodjonova Sh. Badiiy adabiyotda daraxt timsoli va uning g‘oyaviy-falsafiy talqini	81
Muqimova Z.R. Tabiat hodisalarini atovchi nomlarning lingvomadaniy xususiyati	83
Muratova G. G‘afur G‘ulom hikoyalarida qahramon xarakteri tasviridagi rang-baranglik	87
Murodjonova L.F. The ratio of non-verbal and verbal paralinguistic tools used in speech activity	90
Muxtoraliyev B.I. Anvar Obidjonning badiiy mahorati	93
Navruzova N.X. The position of connotative meaning in the semantic structure of a word	96
Niyazova M.X., Tuxtayeva M.A. Tog‘ay Murodning asar personajlari nutqida maqol qo‘llash mahorati	99
Norboyev O‘.S. “Asil va Karam” dostonining shakllanishidagi ilk manbalar va uning yozuvga ko‘chishi	102
Norboyev O‘.S. “Asil va Karam” dostonining og‘zaki versiyalari	105
Nuriddinova N.B. Poetic features of Stephen King's works	107
Ochilova H.A. So‘roq gap va uning turlari haqida	111
Oripova G.M. Abduvali Qutbiddinning qofiya qo‘llash san‘ati	115

UO'K 81'23

INGLIZ TILIGA XOS KONSEPTUAL METAFORALAR TAHLILI

A.A.Fayziyeva, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

S.I.Raximova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi kontseptual metaforalarni o'rganishga bag'ishlangan. Kognitiv yondashuv doirasida metafora inson ongida sodir bo'ladigan, muayyan ko'rinmaydigan hodisalarni o'rganish imkonini beradigan umumiy kognitiv mexanizm sifatida qaraladi. Tarjima nazariyasida metaforalar tarjimasi mashaqqat talab etuvchi masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalaga bag'ishlangan ishlar har doim dolzarblik kasb etadi, zotan, badiiy asar tarjimoni ko'pincha metaforalarni tarjimada aynan berish borasida qiyinchilikka duch keladi. Sifatli tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon nafaqat o'z ona tilining kuchli bilimdoni, balki tarjima nazariyasi bo'yicha kerakli bilimga, amaliy tarjima qilish ko'nikmalariga hamda tarjima qilinaotgan asar xalqi madaniyati haqida ham chuqur ma'lumotga ega bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar: metafora, olam manzarasi, kognitiv metafora, metafora komponentlari, konsepsiya, badiiy diskurs.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению концептуальных метафор в английском языке. В рамках когнитивного подхода метафора рассматривается как общий когнитивный механизм, позволяющий изучать определенные невидимые явления, происходящие в сознании человека. Перевод метафор – один из сложнейших вопросов теории перевода. Работы, посвященные этому вопросу, всегда актуальны, поскольку переводчик литературного произведения часто сталкивается с трудностями в передаче метафоры именно в переводе. Чтобы выполнить качественный перевод, переводчик должен обладать не только глубоким знанием родного языка, но и необходимыми знаниями теории перевода, практическими навыками перевода, глубоким знанием культуры народов региона.

Ключевые слова: метафора, картина мира, когнитивная метафора, компоненты метафоры, концепт, художественный дискурс.

Abstract. This study is devoted to the study of conceptual metaphors in the English language. Within the framework of the cognitive approach, metaphor is considered as a general cognitive mechanism that allows the study of certain invisible phenomena that occur in the human mind. Translation of metaphors is one of the most difficult issues in translation theory. Works devoted to this issue are always relevant, because the translator of a literary work often faces difficulties in giving metaphors exactly in the translation. In order to perform a high-quality translation, the translator must not only have a strong knowledge of his native language, but also the necessary knowledge of translation theory, practical translation skills, and in-depth knowledge of the culture of the people of the work being translated.

Key words: metaphor, world view, cognitive metaphor, metaphor components, concept, artistic discourse

Tilshunoslikda metaforaning eng keng tarqalgan ta'rifi quyidagicha beriladi: Metafora (metaforik model) - bir hodisani semantik jihatdan boshqasiga o'xshatishda yuzaga keladigan

harakatlarni tavsiflovchi holatlar, xususiyatlar, harakatlarning yaqinligi, natijasidagi so'zlar (so'z birikmalari, gaplar) uchun yaratilgan voqelikning ayrim obyektlarini (vaziyatlarini) belgilash uchun hamda ramziy tenglikka asoslangan boshqa obyektlarning (vaziyatlarning) nomlanishida ishlatiladi. [2; 177-178] Metaforani qo'llashda narsalarning ikkita tushunchasi, o'zaro bir so'z yoki ibora ma'nosiga ta'sir qiladi. Buni o'rganishda va shunga mos ravishda metafora tahlili uchun to'rtta komponent ishlatiladi:

- obyektlarning ikki toifasi;
- ikki toifaning xususiyatlari;

Metafora obyektlarning bir sinfining asosiy belgilarini tanlaydi va ularni boshqa sinf yoki shaxs bilan bog'laydi – muayan bir mavzu doirasida. Shuningdek, metaforalarning duallik tushunchasi mavjud, qachon ikki xil sinf va ularning xususiyatlari bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilsa. Tirik metafora o'zining paydo bo'lish va tushunilish paytida ikki belgini o'zaro ta'sirini anglatadi, qaysi obyekt bilan taqqoslanadigan va qaysi obyekt bilan solishtiriladigan, natijada ikkinchisining nomi birinchisining aylanib metaforik ma'noga ega bo'ladi.

Til rivojlanishining asosiy omili - lisoniy metafora hisoblanadi. Aynan u deyarli hamma holatlarda lingvistik jarayonlarda prototip bo'lib xizmat qiladi, masalan, sinonimning shakllanish vositalari, yangi ma'nolar va ularning nuanslarining paydo bo'lishi, polisemiyaning yaratilishi, hissiy ekspressiv lug'atni shakllantirish [6; 106-108]

Sh.Maxmaraimova e'tiroficha, metafora asosida fizik olamning realiyalari nominativlik xarakterini kasb etish evaziga moddiylashadi, bunda bevosita kuzatishda berilmagan voqelik mazmuni aynan metaforalar evaziga konkretlashadi. Mental-hissiy ko'lamda mavjud vaqtga qadar anglanmagan, aktuallashmagan tushunchalar metaforik jarayonda lingvokognitiv vaziyatga mos tarzda konsept xususiyatini kasb etib boradi [4; 32-33]. Biroq bunda metafora mavjud tushunchaning tarkibini batamom qayta qurmaydi, shakllantirmaydi, uning tarkibini yangilamaydi: metafora mavjud semantik maydonning o'zini muqobil semalarga ishora qilgan holda, nominativ resurs sifatida jarayonga tatbiq etadi.

R.Xoffman shunday deb yozgan edi: "Metaforadan vosita sifatida har qanday sohada foydalanish mumkin, tavsif va tushuntirishlarda: aviakompaniya uchuvchilari o'rtasidagi psixoterapevtik suhbatlar va muhokamalar, marosim raqslarida va dasturlash tilida, kvant mexanikasini san'at ta'limida yoritishda. Metafora, biz uni qayerda uchratmasak ham, deyarli har doim insonning xulq-atvori, idroki va tili haqidagi tushunchani boyitadi" [7; 52]

Ingliz olimi E. Ortoniyning fikricha, hayotimizda metaforalardan foydalanilishning uchta sababi bor:

Ular bizga qisqacha gapirishga yordam beradi.

Ular bizning nutqimizni yorqin qiladi.

Ular ifodalab bo'lmaydigan narsani ifodalashga imkon beradi [5; 219].

Biz tez-tez metafora ishlatishimizning sababi shundaki ular bizga tez fikr bildirishga, nutqimizni ixcham, aniq va hamma uchun tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

N.D. Arutyunovanning so'zlariga ko'ra, tildagi metaforalarni quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) *nominativ metafora* (ismni ko'chirish), bir obyektning ma'nonisini boshqa obyektga ko'chirganda.

2) *obrazli metafora* ma'noni predikatga aylantirib, tilning ko'chma ma'nolari va sinonimik vositalari sifatida xizmat qiladi;

3) *kognitiv metafora* muvofiqlikning o'zgarishi natijasida paydo bo'lib predikativ so'zlar va polisemiyaning hosil qiladi;

4) *umumlashtiruvchi metafora*, bu erda leksik ma'no va mantiqiy tartiblardagi chegaralardan xolis bo'lib va buning natijasida mantiqiy polisemiya paydo bo'ladi. [1; 366].

M.V. Nikitining metaforalar tipologiyasi monotoniyaga asoslanib ismni o'tkazish uchun sabab bo'lib xizmat qiladigan denotatsiyalardagi belgilar va to'g'ridan-to'g'ri ma'noning tegishli metaforik qayta tuzilishiga olib keladi. Agar o'xshashlik analogik holatda bo'lsa narsalarni solishtirganda, biz ontologik metaforaga duch kelamiz: to'g'ridan-to'g'ri va tizimli.

To'g'ridan-to'g'ri metafora bo'lsa, jismoniy belgilar o'xshash xususiyatga ega bo'lsa ("ayiq": 1. jonivorning turi – katta, bahaybat 2. semiz odam) strukturaviy holatda esa monotonlik tizimli xususiyatga ega, boshqa so'z bilan aytganda, belgilar ikkita denotatning tabiatida tarkibiy rol o'ynaydi (solishtirganda: ovqatlanish (ovqat qabul qilish), mehmonlarni qabul qilish, ma'lumot qabul qilish) (*Ср.: прием пищи, прием гостей, прием информации*). Ikkala versiyada ham o'xshash belgilar mavjud bo'lib, faqat solishtirishdan oldin topiladi va faqat unda namoyon bo'ladi. Qachon o'xshashlik belgilari taqqoslangan shaxslarda mavjud, lekin ontologik jihatdan ham jismoniy tabiati, ham tarkibiy roli bilan farqlanadi va o'xshashlik momenti faqat idrok paytida paydo bo'ladi, biz gaplashamiz sinestetik va hissiy-baholovchi metaforalar. O'xshashliklar bu yerda narsalarning ontologiyasi bilan emas, balki axborotni qayta ishlash mexanizmlari bilan hosil bo'ladi.

Ontologik (to'g'ridan-to'g'ri va tizimli) metafora bilan o'xshashligi sinestetik - har qanday holatda ham, har safar o'ziga xos tarzda, ob'ektni qandaydir o'xshashlik asosida belgilashga va tasvirlashga mo'jalangan va berilgan ob'ektning xususiyatlariga asoslangan taqqoslashlardir. Ularga kognitiv tekislikdan o'tishni taklif qiluvchi hissiy-baholovchi metafora qarshi turadi va ongni pragmatikaga aylantiradi. [4; 37-38]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, metafora barcha kontseptual tizimlarda mavjud bo'lib, biror kishi uchun juda ko'p turli xil tushunchalar anglatishi mumkin, tajribada mavhum yoki butunlay aniqlanmagan bo'lsada (his-tuyg'ular, g'oyalar, vaqt va boshqalar). Ammo ularni tushunish uchun biz boshqa tushunchalardan foydalanishimiz kerak, aniqroq amalga oshiriladigan (fazoviy orientatsiya, obyektlar va boshqalar). Metaforalar yordamida biz kontseptual tizim tushunchasiga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Артюнова Н.Д. Язык и мир человека, 1998. – С. 366.
2. Глазунова О.И. Логика метафорических преобразований. 2002. – С.177-178.
3. Махмараймова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик таъқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. док-ри дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – Б.32-33.
4. Никитин М.Б. Метафорический потенциал слова и его реализация // Проблема теории европейских языков Изд-во «Тригон», 2001. – С. 37-38
5. Орто́ни Э. Роль сходства и уподобления в метафоре: пер. с англ. // 1990 – С.219-235.
6. Уилрайт Ф. Метафора и реальность // Теория метафоры: 1990. — С.106-108.
7. Hoffman R.R. What could reaction-time studies be telling us about metaphor comprehension? 1987. – 152 p.

UDC 808.3

THE OLD MAN AND THE SEA, THE BATTLE OF LIFE FOR ALL HUMAN KIND

M.I.Gadoeva, DSc, prof., Bukhara State University, Bukhara
M.Chullieva, master student, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asari 1952 yilda nashrga chiqdi, bir yildan so'ng badiiy adabiyot bo'yicha Pulitser mukofotiga sazovor bo'ldi. 1954 yilda Xeminguey adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bunday katta muvaffaqiyat va martabadan so'ng, bir necha yil o'tgach, yakshanba kuni, 1961-yil 2-iyul kuni ertalab Xeminguey o'z joniga qasd qildi. Yozuvchining eng mashhur “Chol va dengiz” romani bilan yakunlanishining paradoksi shundaki, Ernest Xeminguey taslim bo'lgan, “Santyaگو” romanidagi qahramon esa hech qachon mag'lubiyatga uchramagan va g'alaba qozongan. Bu paradoks savol tug'diradi: ko'pchilik sharhlovchilarning fikricha, “Chol va dengiz” muallifning shaxsiy hayoti va iztirobini aks ettiradimi yoki bundan ham ko'proqmi? Bu asar har bir davrda insoniyatning doimiy kurashini tasvirlaydigan va ifodalovchi romanmi? Ushbu maqolada men “Chol va dengiz” romanida qo'llanilgan simvolizmni tahlil qilaman, shuningdek, insoniyatning, butun dunyoning va uning muallifi Ernest Xemingueyning tarixiy va adabiy xotirasi va vijdonining oqimi bilan taqqoslayman. Ushbu maqolaning maqsadi nima uchun bu roman muallifning ovozi bilan tashqariga chiqqani haqida tahlilni taqdim etishdir. Bu butun asrlar davomida insoniyatning kurashi va da'vatini ifodalovchi universal asardir.

Kalit so'zlar: Xeminguey, chol, dengiz, simvolizm, Santyaگو, Manolin, Marlin, akula, sher, baliq, insoniyat, kurash, universal.